



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

**TEXNOLOGIYA O‘QITISH MAXSUS METODIKASI BO‘LAJAK
OLIGOFRENOPEDAGOGLARNI KASBGA AMALIY TAYYORLASHNI
TA‘MINLASH TIZIMI SIFATIDA**

Daminova Maftuna Asqarali qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, dotsenti (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Texnologiya o‘qitish maxsus metodikasi” fanining bo‘lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy faoliyatga amaliy tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Muallif mazkur fan orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda maxsus ta‘lim muassasalarida samarali pedagogik faoliyat olib borishga tayyorlash tizimini tahlil qiladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar, zamonaviy metodlar va amaliy mashg‘ulotlarning ushbu jarayondagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari maxsus metodikaning korreksion ta‘lim jarayonida muhim didaktik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: texnologiya ta‘limi, maxsus metodika, oligofrenopedagogika, bo‘lajak oligofrenopedagoglar, kasbiy tayyorgarlik, amaliy ko‘nikmalar, mehnat tarbiyasi, maxsus ta‘lim, korreksion ta‘lim, innovatsion yondashuvlar.

**СПЕЦИАЛЬНАЯ МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ КАК СИСТЕМА
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ
БУДУЩИХ ОЛИГОФРЕНОПЕДАГОГОВ**

Даминова Мафтуна Аскарали кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, доцент (PhD)

Аннотация

В статье раскрывается роль и значение дисциплины «Специальная методика преподавания технологии» в практической профессиональной подготовке будущих олигофренопедагогов. Автор анализирует систему формирования профессиональных компетенций, развития практических навыков и подготовки студентов к эффективной педагогической деятельности в учреждениях специального образования. Также рассматривается роль инновационных подходов, современных методов и практических занятий в данном процессе. Результаты исследования подтверждают значимость специальной методики как важного дидактического инструмента в коррекционном обучении.

Ключевые слова: технологическое образование, специальная методика, олигофренопедагогика, будущие олигофренопедагоги, профессиональная подготовка, практические навыки, трудовое воспитание, специальное образование, коррекционное обучение, инновационные подходы.

**SPECIAL METHODOLOGY OF TEACHING TECHNOLOGY AS A SYSTEM FOR
ENSURING THE PRACTICAL PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE
OLIGOPHRENOPEDAGOGUES**

Daminova Maftuna Asqarali qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article highlights the role and significance of the course “Special Methodology of Teaching Technology” in the practical professional training of future oligophrenopedagogues. The author analyzes the system of forming professional competencies, developing practical skills, and preparing students for effective pedagogical activity in special education institutions. The study

also examines the role of innovative approaches, modern teaching methods, and practical training in this process. The findings confirm the importance of special methodology as a key didactic tool in corrective education.

Keywords: technology education, special methodology, oligophrenopedagogy, future oligophrenopedagogues, professional training, practical skills, labor education, special education, corrective education, innovative approaches.

Pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish hamda hayotga tayyorlash qonuniyatlarini o'rgatadi va o'rganadi. IX–XII asr o'rtalarida turli fan sohalarining keng ko'lamda rivojlanishi insoniyat tarixida buyuk ensiklopedik hisoblanadigan olimlar bilan bog'liqdir. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari uning bizgacha yetib kelgan juda ko'p asarlari orasida tarqoq holda saqlanib qolgan. Ibn Sinoning tavsiya qilgan asarida tarbiya va ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi: aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ya'ni hunar o'rganish [1].

Adabiyotlar tahlili

Mazkur tadqiqot doirasida o'rganilgan manbalar bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda "Texnologiya o'qitish maxsus metodikasi" fanining nazariy va amaliy asoslarini yoritishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, N. Yusupova va G. Sodikovaning "Mehnat ta'limi maxsus metodikasi" asarida [1, 45-bet] maxsus ta'lim muassasalarida mehnat ta'limini tashkil etishning metodik asoslari, o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish yo'llari batafsil yoritilgan. Ushbu manba bo'lajak mutaxassislarining amaliy tayyorgarligini ta'minlashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

L. F. Serbinaning ilmiy tadqiqotida [2, 9-bet] oligofrenopedagog shaxsida professional-gumanistik yo'nalganlikni shakllantirish masalalari ochib berilgan bo'lib, unda pedagogning kasbiy kompetensiyasi va shaxsiy sifatleri uyg'unligi muhim omil sifatida talqin etiladi. Bu esa zamonaviy pedagog tayyorlash tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning dolzarbligini ko'rsatadi.

V. V. Serikovning monografiyasida [3, 112-bet] ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishining nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, unda kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim va individual rivojlanish muhim o'rin egallaydi. Ushbu qarashlar maxsus metodika fanining mazmunini boyitishda muhim ahamiyatga ega.

N. Yu. Yusupova va hammualliflarning "Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodikasi" asarida [4, 67-bet] maxsus ehtiyojli bolalarni ijodiy faoliyatga jalb etish, ularning mayda motorikasini rivojlantirish hamda didaktik materiallardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

M. Tilavovanning "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" qo'llanmasida [5, 53-bet] texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlarning tashkil etilishi hamda o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

M. A. Daminovanning ilmiy maqolasida [6, 28-bet] talabalarda ijodiy faollikni rivojlantirishning pedagogik jihatlari tahlil qilingan bo'lib, unda innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan.

Sh. M. Amirsaydovanning tadqiqotida [7, 14-bet] sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, xususan, mehnat tarbiyasiga oid g'oyalari zamonaviy maxsus pedagogika bilan uyg'un holda tahlil etilgan.

X. Sanaqulov va hammualliflarning "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" asarida [8, 76-bet] mehnat ta'limining mazmuni, shakl va usullari hamda amaliy mashg'ulotlarning tizimli tashkil etilishi masalalari yoritilgan.

Shuningdek, H. R. Sanaqulov va boshqalarning metodik qo'llanmasida [9, 91-bet] texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlar, darslarni rejalashtirish va tashkil

etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

O. O. Tohirov tomonidan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmuada [10, 38-bet] texnologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari keltirilgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda maxsus ta'lim jarayonini samarali tashkil etish muhimligini ko'rsatadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlarni o'rganish va umumlashtirish), qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv hamda amaliy tajriba usullaridan foydalanildi. Shuningdek, bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini baholashda ularning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan diagnostik usullar qo'llanildi. "Texnologiya o'qitish maxsus metodikasi" fanining mazmuni va amaliy mashg'ulotlari tahlil qilinib, ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi samaradorligi aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari nazariy va amaliy ma'lumotlarni integratsiyalash asosida umumlashtirildi.

Natijalar

Ibn Sino shuni alohida uqtirgan ediki, oila a'zolarining hammasi biror mehnat bilan shug'ullanishi zarur, biror kishi sababsiz bekor yurmasin. Ibn Sino barcha jamiyat a'zolarining ishlab chiqarish mehnati bilan shug'ullanishi kerakligini talab etadi. Mehnat jarayonida o'quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi [7]. Mehnat madaniyati — bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish, puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish, ijodkorlikni rivojlantirish, ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o'zida yana o'quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishini ham aks ettiradi. Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o'quvchilarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangiliklardan boxabar etish, ularda mehnatga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat. Ushbu xislatlarni o'quvchilarda shakllantira olish uchun avvalo oligofrenopedagog-o'qituvchining o'zi yetuk mutaxassis bo'lishi zarur. Bu bilim va ko'nikmalar oliy ta'lim muassasasida bo'lajak oligofrenopedagoglarga texnologiya darsi jarayonida singdirib boriladi.

Bo'lajak oligofrenopedagoglarga beriladigan ma'lumotlar ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan bo'lishi talab etiladi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi [2, 3]. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Talaba o'rganayotgan bilimlar, albatta, nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

Mehnat ta'limining mazmuni shartli ravishda uchga, ya'ni mehnat ta'limi tayyorgarligi, kasblar bo'yicha tayyorgarlik va kasbgacha maxsus tayyorgarlik qismlariga bo'linadi. Bu qismlar har bir darsning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularning o'qituvchilar tomonidan ilmiy-uslubiy nuqtayi nazardan hisobga olingan holda tahlil qilib borilishi mehnat ta'limi darslarining aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi [6].

Har bir dars mazmuniga bog'liq holda iqtisodiy, huquqiy va ekologik bilimlar hamda xavfsizlik texnikasi qoidalari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda o'rgatib boriladi. Qo'l mehnatiga

o'rgatishda qo'llanadigan asosiy usullar tizimi quyidagicha: og'zaki bayon qilish, tushuntirish va hikoya qilish, suhbat, mashqlar, amaliy ishlar, mustaqil ishlar, ekskursiya, kitob bilan ishlash, texnik vositalar bilan ishlash.

Hozirgi vaqtda alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni mehnat ta'lim-tarbiyasi asosida kasb-hunarga tayyorlashda erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularda o'z kuchiga, qobiliyatiga ishonish kabi xislatlarni shakllantirish masalalari ham dolzarbdir. O'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashda mehnat ta'lim-tarbiyasini amalga oshirish oligofrenopedagog mutaxassislar oldida alohida yordamga muhtoj bolalarning ruhiy hamda jismoniy nuqsonlarini inobatga olgan holda yangi dastur va darsliklarni o'z vaqtida ishlab chiqish, to'garaklar ishini yaxshilash, turli kasblarga oid axborot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, kasbga yo'naltirish markazlari ishini takomillashtirish orqali erishish muammolarini ham qo'yadi [4].

Mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish quyidagi asosiy bosqichlardan tarkib topadi: boshlang'ich tushuncha berish; mehnat harakatlarini sinov uchun bajarish; ish harakatlari natijasi; yakuniy xulosa chiqarish.

Mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan amaliy ishlar faqat vaqtga ko'ra taqsimlanganda hamda ma'lum tizim asosida o'tkazilgandagina ijobiy natija beradi [5].

Amaliy ishlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o'z ichiga oladi:

1. Amaliy ishlarni bajariladigan topshiriqning murakkabligi oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.
2. Bajarilayotgan amaliy ish mazmuni to'liq tarzda oldingi amaliy ishga asoslanishi lozim.
3. Amaliy ish jarayonida mustaqil ishlash darajasi ortib borishi kerak.

Bo'lajak oligofrenopedagoglarda mehnat tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi: shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish; ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish; turli mazmunga ega mehnat ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish; mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish; nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish; mehnatga muhabbat uyg'otish, ularni mehnatsevarlikka, tejamkorlikka o'rgatish.

Muhokama

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlaridan asosiy maqsad alohida yordamga muhtoj bolalarni ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga ko'nikishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlar va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Bo'lajak oligofrenopedagoglarning "Texnologiyani o'qitish maxsus metodikasi" fanini o'qigandan so'ng maxsus muassasalarda qo'l mehnatiga o'qitishning o'ziga xos tomonlari; maxsus metodikaning asosiy bo'limlari bo'yicha (yasash orqali ko'nikma va malakalar, fazoviy mo'ljallanish, ranglarni ajratishga o'rgatish) nazariy bilimlar; Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan vazifalar; ta'limiy-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi-korreksion ishlarni tashkil etish shakllari, usullari haqidagi bilim; talaba rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni mehnat faoliyatiga o'qitish; maxsus korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish; shakllari va usullarini ilmiy asoslangan holda to'g'ri tanlay olish; bolalar rivojlanishidagi mavjud nuqsonlarni tasniflash va korreksiyalash; maxsus adabiyotlarni tahlil etish; bolalarni mehnat faoliyatiga o'qitish uchun didaktik materiallarni tanlay olish bo'yicha ko'nikma; ta'limni tashkil etish shakllari; ta'limni tashkil etish usullarini amalda samarali qo'llash; ota-onalar bilan ishlash; rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta'lim-tarbiya nazariyasini amalda qo'llash malakasiga ega bo'lishi kerak.

Texnologiya o'qitish metodikasi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ijodiy qobiliyatlarini, tasavvurlarini va kognitiv jarayonlarini rivojlantirishda xizmat ko'rsatadigan mayda qo'l motorikasini faollashtirishga xizmat qiladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning barcha bilish jarayonlarini, tasavvurini, estetik tarbiyasini, nutqini shakllantirishga qaratilgan. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida texnologiya fanini

o'qitishda izchillilik va tizimlilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, ongliklik, shuningdek, differensial va yakka yondashuv, korreksion ta'lim-tarbiya berish tamoyillarini qo'llagan holda bolalarni mehnatga jalb etish va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Oligofrenopedagogika yo'nalishida mazkur fan — "Tasviriy san'at va texnologiyani o'qitish maxsus metodikasi" o'quv rejasida keltirilgan keyingi barcha fan va modullar uchun fundamental asos vazifasini o'tab, zarurat yuzasidan birlamchi modul hisoblanadi. Texnologiya fanining maqsadi talabalarda ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarga ijodiy faoliyatni o'rgatish uchun zarur nazariy bilim va amaliy malakalar, korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari hamda usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat [8]. Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tash hamda boshqa o'quv mashg'ulotlari va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Oligofrenopedagogika yo'nalishida "Texnologiya o'qitish maxsus metodikasi"ning pedagogik jarayoni nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil ta'lim jarayonlaridan iborat. Amaliy hamda mustaqil ta'limga ajratilgan soatlar talabalarda o'qituvchilar bilan o'zaro faol suhbatga kirishishni, olingan nazariy bilimlardan amaliy foydalanish imkoniyatlarini, ijodiy tafakkurni, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda to'garaklar tashkil qilishni va yangi innovatsion texnik jihozlardan foydalanishni ta'minlab beradi. Bo'lajak oligofrenopedagoglar mustaqil ta'lim jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish, didaktik materiallar yaratish, infografika tuzish, metodik ishlanmalar hamda ijodiy ishlar yaratishni o'rganishadi. Texnologiya o'qitish maxsus metodikasi jarayonida texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. O'quv predmetini o'qitish orqali o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

"Texnologiya o'qitish maxsus metodikasi" fani bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim tizimli asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur fan orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, maxsus ta'lim muassasalarida samarali pedagogik jarayonni tashkil etish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Fan doirasida amalga oshiriladigan amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi hamda ularni real pedagogik faoliyatga yaqinlashtiradi. Ayniqsa, differensial va individual yondashuv asosida olib boriladigan ta'lim jarayoni alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, mazkur metodika mehnat ta'limi orqali o'quvchilarda mustaqillik, mas'uliyat, mehnatsevarlik kabi muhim sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarining nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Texnologiya o'qitish maxsus metodikasi" fanining mazmuni va uni o'qitish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilganda, bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini samarali ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yusupova N., Sodikova G. *Mehnat ta'limi maxsus metodikasi*. — Toshkent, 2010.
2. Сербина Л. Ф. *Воспитание профессионально-гуманистической направленности личности учителя-олигофренопедагога: автореф. дис. ... канд. пед. наук.* — М., 1992. — 17 с.
3. Сериков В. В. *Развитие личности в образовательном процессе: монография.* — М.:

Логос, 2012. — 448 с.

4. Yusupova N. Yu., Hamidova M. U., Abidova N. Q., Pardayeva M. Yu. *Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodikasi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. Tilavova M. *Texnologiya va uni o'qitish metodikasi*. — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019.
6. Даминова М. А. Педагогические аспекты развития творческой активности обучающихся // *Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации*. — Украина, 2021. — № 79. — URL: <http://confscientific.webnode.com.ua>
7. Amirsaidova Sh. M. *Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakkiri g'oyalarining o'rni va roli*: avtoref. dis. ... ped. fan. nomz. — Toshkent: TDPU, 2006.
8. Sanaqulov X., Xodiyeva D., Satbayeva M. *Mehnat va uni o'qitish metodikasi*. — Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015.
9. Sanaqulov X. R., Nasrullayeva F. A., Aloviddinova N. M. *Texnologiya: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma*. — Toshkent, 2022.
10. Тоҳиров О'. О. *Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua*. — Toshkent, 2017.